



*2024- yil yanvar-noyabr oylari uchun
dastlabki ma'lumot*

TOSHKENT VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

2024- yil yanvar-noyabr oylarida Toshkent viloyatining tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 5609,1 mln. AQSH dollariga yetdi va 2023- yilning mos davriga nisbatan 366,6 mln. AQSH dollariga yoki 7,0 % ga ko'paydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-noyabr 2024 y., mln. AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2024- y.: **5 609,1** 7,0 %

(2023- y.: **5 242,5**)



Saldo

2024- y.: **-2 047,5** (2023- y.: -1 779,3)




Eksport

2024- y.: **1 780,8** 2,8 %

(2023- y.: **1 731,6**)


TSAdagi ulushi, % da



Import

2024- y.: **3 828,3** 9,0 %

(2023- y.: **3 510,9**)



Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarning tashqi savdo statistikasida O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobi tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi 1 780,8 mln. AQSH dollariga (2023- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 2,8 % ga ko‘paydi) va import hajmi 3 828,3 mln. AQSH dollariga (9,0 % ga ko‘paydi) yetdi. Hisobot davrida **-2 047,5** mln. AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.




TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2024- yil yanvar-noyabr mln. AQSH dollari)

XXR	Rossiya	Qozog‘iston	Turkiya	Belarus
TSA – 1 622,6	TSA – 1 499,5	TSA – 688,8	TSA – 344,3	TSA – 117,2
Eksport: 557,6 Import: 1 065,0	Eksport: 511,2 Import: 988,3	Eksport: 116,8 Import: 572,0	Eksport: 187,9 Import: 156,4	Eksport: 17,1 Import: 100,1
 28,9 %	 26,7 %	 12,3 %	 6,1 %	 2,1 %
Italiya	Tojikiston	Germaniya	Qirg‘iz Respublikasi	Afg‘oniston
TSA – 84,5	TSA – 94,0	TSA – 149,9	TSA – 91,9	TSA – 81,8
Eksport: 12,4 Import: 72,1	Eksport: 51,4 Import: 42,6	Eksport: 9,4 Import: 140,5	Eksport: 35,9 Import: 56,0	Eksport: 80,9 Import: 0,9
 1,5 %	 1,7 %	 2,7 %	 1,6 %	 1,5 %




YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-noyabr, mln. AQSH dollari)

Davlatlar		2023- y.	2024- y.
XXR		1366,8	1622,6
	Eksport	420,6	577,6
	Import	946,2	1065,0
Rossiya		1155,2	1499,5
	Eksport	502,4	511,2
	Import	652,8	988,3
Qozog'iston		784,0	688,8
	Eksport	97,4	116,8
	Import	686,6	572,0
Turkiya		407,8	344,3
	Eksport	242,7	187,9
	Import	165,1	156,4
Braziliya		225,4	166,1
	Eksport	0,0	0,0
	Import	225,4	166,1
Belorus		99,0	117,2
	Eksport	19,8	17,1
	Import	79,2	100,1
Germaniya		104,8	149,9
	Eksport	9,2	9,4
	Import	95,6	140,5
Italiya		142,6	84,5
	Eksport	13,6	12,4
	Import	129,0	72,1
Shveytsariya		7,2	54,2
	Eksport	1,8	4,7
	Import	5,4	49,5
Tojikiston		91,7	94,0
	Eksport	42,9	51,4
	Import	48,8	42,6




HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024- yil yanvar-noyabr, mln. AQSH doll.)*





TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-noyabr, mln. AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-noyabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 45,6 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasi 2023- yilning mos davriga nisbatan 1,9 % ga ko‘paydi.



Toshkent viloyatining boshqa xorijiy davlatlar bilan TSAsi 2023- yilning mos davriga nisbatan 1,9 % ga kamaydi va jami TSAdagi ulushi 54,4 % ni tashkil etdi.

Toshkent viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yil yanvar-noyabr oylarida 2 557,3 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 768,2 mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 1 789,1 mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI (2024- yil yanvar-noyabr, ulushi, % da)

Rossiya – 26,7



Qozog'iston – 12,3



Belarus – 2,1



Qirg'iz
Respublikasi – 1,6




Turkmaniston – 0,3



Tojikiston – 1,7



Ozarbajjon – 0,4



Ukraina – 0,4



Toshkent viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori hajmlari Rossiya (26,7%), Qozog'iston (12,3%) hamda Belarus (2,1%) davlatlari bilan qayd etildi.






Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, eksportyorlar soni 905 taga yetdi va ular tomonidan 1 780,8 mln. AQSH dollari qiymatidagi (2023-yilning mos davriga nisbatan 7,0 % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-noyabr ulushi % da)



O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.




TOSHKENT VILOYATINING XSST BO‘YICHA EKSPORTI TARKIBI *(yanvar-noyabr, yillar kesimida)*

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O‘zgarish sur‘ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami eksport	1 731,6	1 780,8	93,2	102,8	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	228,1	239,3	101,1	104,9	13,2	13,4
Ichimliklar va tamaki	7,0	12,9	167,1	184,8	0,4	0,7
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	54,3	58,7	86,7	108,1	3,1	3,3
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	7,4	26,5	2,5 m.	3,6 m.	0,4	1,5
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	2,2	9,0	150,6	4,0 m.	0,1	0,5
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	69,9	88,5	88,8	126,5	4,0	5,0
Sanoat tovarlari	1076,4	1063,8	86,9	98,8	62,2	59,7
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	57,0	68,6	98,3	120,4	3,3	3,9
Turli xil tayyor buyumlar	224,7	205,5	124,7	91,4	13,0	11,6
Xizmatlar	4,6	8,0	82,3	172,7	0,3	0,4

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,6 %ni tashkil etib, ulardan yuqori ulush sanoat tovarlari (59,7%), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (13,4%) va turli xil tayyor buyumlar (11,5%) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda-tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024- yilning yanvar-noyabr oyida MDH mamlakatlariga eksportning ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,0 % ga kamaygan.



MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-noyabr, mln. AQSH dollari, ulushi)

■ MDH davlatlar
■ Boshqa davlatlar

2024- yil yanvar-noyabr oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, XXR, Turkiya, Qozog'iston, Afg'oniston, Tojikiston va Qirg'iz Respublikasi kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 86,5 % ni tashkil etdi.




TOSHKENT VILOYATI EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-noyabr, % da)





TOSHKENT VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2024- yil yanvar-noyabr, mln.AQSH doll.)*





MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo‘jaligi va bog‘dorchilikni rivojlantirishga katta e‘tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024- yil yanvar-noyabr oyida 173,0 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan.

Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 66,1 mln. AQSh dollariga teng 117,2 ming tonnadan ortiq sabzavot shuningdek, 43,9 mln. AQSh dollari qiymatidagi 38,7 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

2024- yil yanvar-noyabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo‘lgan 110,0 mln. AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2024- yil yanvar-noyabr, o‘zgarish sur‘atlari, qiymatga nisbatan)



Meva va
rezavorlar
38,7 ming tonna
43,9 mln.
AQSH dollari

Uzum
15,7 ming
tonna
15,7 mln.
AQSH dollari

Yeryon-g‘oqlar
1,4 ming tonna
2,0 mln. AQSH
dollari

Sabzavotlar
117,2 ming tonna
66,1 mln. AQSH
dollari



TOSHKENT VILOYATINING IMPORTI




2024- yilning yanvar-noyabr oylarida import hajmi 3 828,3 mln. AQSH dollarini va 2023- yilning mos davriga nisbatan 109,0 % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunolari (30,6%), sanoat tovarlari (15,8%) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (10,2%) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-noyabr, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024- yilning yanvar-noyabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 317,4 mln. AQSH dollariga ko'paydi va 3 828,3 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 36,6 mln. AQSH dollariga yetdi.



TOSHKENT VILOYATINING XSST BO‘YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-noyabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O‘shish sur‘ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami import	3 510,9	3 828,3	112,0	109,0	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	587,8	671,7	90,0	114,3	16,8	17,5
Ichimliklar va tamaki	5,2	8,0	105,0	154,2	0,1	0,2
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	520,9	508,9	83,3	97,7	14,8	13,3
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	226,6	337,4	185,8	148,9	6,5	8,8
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	87,7	89,0	146,5	101,4	2,5	2,3
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	356,8	326,2	107,8	91,4	10,2	8,5
Sanoat tovarlari	556,4	661,0	105,0	118,8	15,8	17,4
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	1076,0	1069,5	157,7	99,4	30,6	27,9
Turli xil tayyor buyumlar	86,0	73,6	75,3	85,6	2,4	1,9
Boshqa tovarlar	2,0	46,4	49,3	22,8 m.	0,1	1,2
Xizmatlar	5,5	36,6	70,0	6,6 m.	0,2	1,0


Tashqi savdo statistikasini yuritish metodologiyasiga ko'ra, tashqi savdo statistikasiga tranzit tovarlar, mamlakatga vaqtincha olib kirilgan yoki undan vaqtincha olib chiqilayotgan tovarlar kiritilmasligi nazarda tutilgan.



2024- yil yanvar-noyabr natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 46,7 % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 3,3 % ga ko'paydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-noyabr, mln. AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-noyabr oyida yetti yirik hamkor davlatlar (Rossiya, XXR, Qozog'iston, Turkiya, Italiya, Belarus va Germaniya) jami importning 80,8 % ni tashkil etdi.



TOSHKENT VILOYATI IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-noyabr, % da)





TOSHKENT VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2024- yil yanvar-noyabr, mln. AQSH doll.)

